



BUGUNGI KUNDA BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA  
PIRLS XALQARO TA'LIM DASTURINING AHAMIYATI

**Kuchkarova Kumrinisa Shermatovna**

*Toshkent viloyati Angren shahri 73-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internati*

*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda PISA, TIMSS va PIRLS xalqaro ta'lim dasturining ahamiyati hamda, baholash tizimlari haqida batafsil ma'lumot beilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Xalqaro dastur, PISA, PIRLS, TIMSS, matn tahlili, savodxonlik, samaradorlik.*

Bugungi kunda barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham ulkan islohotlar olib borilmoqda. Shu jumladan, Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash tizimlari fanida bugungi kunda jamiyatimizga kirib kelgan xalqaro baholash tizimlari va ularning talablari, maqsad va vazifalari o'rganiladi. O'zgarishlar davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi.

Shuni inobatga olgan holda umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yosh avlodning har tomonlama puxta bilim olishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bunday talabning qondirilishi o'z navbatida yoshlar o'rtasida kitobxonlik va darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishning zamonaviy ijtimoiy innovatsiyalar orqali amalga oshirish ehtiyojini vujudga keltirmoqda.

Ayni davrga kelib globallashuv jarayoni jamiyatning barcha sohalarida avj olmoqda va o'z navbatida, fan va texnikaning rivojlanishiga, iqtisodiyotning yuqori darajada o'sishiga hamda ta'lim sohasidagi integrasiya jarayoning yanada chuqurlashishiga olib kelmoqda. Shuningdek, globallashuv jarayoni kelajak egalari sifatida yosh avlodni tayyorlashda dunyo mamlakatlarining maqsadlarini umumiy lashishiga olib keldi. Dunyo davlatlari ta'limning jamiyat taraqqiyoti va inson rivojlanishidagi muhim o'rnini e'tiborga olib, ta'lim sifatiga e'tibor qaratdi. Ayni davrda ta'lim sohasida sifat tushunchasi global fenomen sifatida ko'rilmogda. Yosh avlodning intellektual faolligini shakllantirish nafaqat muayyan bir mamlakat balki xalqaro hamjamiyat uchun ham muhim masalaga aylandi. Shuning uchun ta'lim sifati, ta'lim sifatini baholash kabi masalalar bilan ko'pgina xalqaro tashkilotlar davlatlarida ta'lim sohasida baholashning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, PIAAC, ICCS, SITES, IALS, ALL kabi xalqaro baholash dars turlari amaliyotga tatbiq etilgan. Zamonaviy globallashuv va o'sib borayotgan xalqaro raqobat sharoitida "Har tamonlama rivojlanish konsepsiyasi" yosh avlodning bilim darajasiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasida yosh avlodni XXI asr bilim va ko'nikmalarini egallashlari uchun zarur shart-sharoit yaratish maqsadida ta'lim sohasida tizimli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni



tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro taqdiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Bunday markazning tashkil etilishi o'quvchilarning ta'limdagi yutuqlarni baholash va nazorat qilish imkonini beradi. Bundan ko'rinadiki, mamlakatimizda ta'lim sifatini baholashning yangicha tizimi shakllanmoqda.

Hozirda zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari rivojlantirilmoqda. Jumladan, 2018- yil 12-noyabrda Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o'rtasida Xalqaro talabalar bilimini baholash dasturi (programme for international student assessment (PISA) da ishtirok etish to'g'risida kelishuv imzolandi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida bunday xalqaro baholash tendensiyalariga amal qilish yosh avlodni intellektual faolligini oshirish, ularning ta'limdagi kompetentligini va kreativligini rivojlanishiga hissa qo'shadi. Yuqorida keltirilgan xalqaro baholash dasturlari tahsil oluvchilarning shu kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bugungi kunda bu baholash dasturlarini ta'lim jaraoyoniga integratsiya etsih zarur hisoblanadi.

Bugungi kun ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligini inobatga olgan holda aksariyat xorijiy davlatlarda ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ayrim ilg'or tajribalarni o'rganib chiqdik. Xususan, dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda. PIRLS - tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtrok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang\_ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study-Xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi taraqqiyot) -bu 4-sinf o'quvchilarning matnni o'qish va tushunish darajalarini baholab beruvchi xalqaro qiyosiy baholash mezonidir. PIRLS- (inglizcha – Progress in International Reading Literacy Study – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot) mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlarda boshlang\_ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta, bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir. PIRLS tadqiqotlari Xalqaro ta'lim institutlari assosiatseyasi



(IEA) tomonidan muvofiqashtiriladi. Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assosiyasi (IEA- International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat Chestnut Hill (Maccachucetc, AQSH) Boston kollejiga yuklatilgan. Tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi. Ilk bora tadqiqot 2001-yilda o'tkazilgan. Tadqiqot har 5 yilda bir marotaba o'tkaziladi. PIRLS tadqiqotda ishtirok etuvchi turli mamlakatlarda boshlang\_ich sinfga maktab o\_quvchilarini qabul qilish yoshi turlicha. Ko'plab mamlakatlarda maktabga olti yoshdan qabul qilishadi va to'rtinchi sinfni 10,5 yoshda tugatishadi. Biroq, Angliya, Yangi Zelandiya, Trinidad Tobagoda- maktabga 5 yoshdan qabul qilishadi va ahamiyatli jihati PIRLS xalqaro tadqiqotida ushbu mamlakatlarning 5-sinf o\_quvchilari xalqaro tadqiqotda ishtirok etishadi. Shvesiya, Daniya va ko'plab Sharqiy davlatlarda- maktabga 7 yoshdan qabul boshlanadi va ushbu mamlakatlarning o'quvchilari qolgan tengdoshlariga nisbatan eng katta (10,7-10,9) yoshni tashkil etadi.

Bu dastur asosida olib borilyotgan ushbu jarayonlar bevosita fanlar bilan va fanlararo bog'liqlik tarzda olib borilishi lozim bo'ladi. Quyida integratsiya va baholash dasturlari asosida olib boriladigan qisqacha fikrlarga e'tibor qaratamiz. Integratsiyaning asosini fanlararo aloqadorlik tashkil etadi va ozining rivojini Integratsiya goyasida topadi. Integrativ mazmunga ega bolgan predmetlarni organish bo'lajak mutaxassislar bilimi, ish uslublari, shaxsiy fazilatlarini yaxlit, bir butunligini ta'minlovchi omil sifatida qaraladi. Shuningdek, boshqa o'z samarasini berib kelayotgan xalqaro baholash dasturlariga ham to'xtalish mumkin:

PISA-o'quvchilarning o\_qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlardan bilim darajalarini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, o'quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko\_nikmalarini aniqlashga mo'ljallangan. PISA Xalqaro dasturi shuningdek, o'quvchilar munosabati va hal qila olish kabi ko\_nikmalarni ham baholaydi.

Masalan, global ahamiyatda ega masalalarni hal etishda o'quvchi-yoshlarning fikrmulohazalari, ular bergan taklif va yechimlarni baholaydi.

PISA- xalqaro baholash dasturlarining natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlariga baho beriladi. PISA hech qanday o'quv dasturini belgilamaydi yoki tartib qilmaydi yoki umumiy e'tirof etishni taqazo etmaydi. Ishtirokchi mamlakatlar ekspertlari va iqtisodchilarining fikricha, o'quvchilarda tabiiy fanlardan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikma darajalari shakllanishi, mustahkamlanishi, davlatlarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhim dastlabki qadamlar deb hisoblanishini e'tirof etadi. PISA tadqiqoti- Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti IHTt (OECD Organisation for Economic Co-operation and Development) tomonidan amalga oshiriladigan dastur hisoblanadi. Tadqiqot ilk bora 2000-yilda o'tkazilgan bo'lib, har uch yilda bir marotaba o'tkazib boriladi. Navbatdagi tadqiqotlar 2021-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan. PISA tadqiqoti o'ziga xos xususiyatlarga ega.



Shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lida xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmon. T. 2016 yil 7 fevral
2. «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. T. 2019 yil 29 aprel
3. OECD. Measuring student knowledge and skills. A new Framework for Assessment. OECD, 1999.
4. Пентин П.А., Ковалева Г.С "Состояние естественно-научного образования в российской школе по результатам международных исследований TIMSS и PISA", – М.: 2018.
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)